

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI



08.00.01 – "IQTISODIYOT NAZARIYASI" IXTISOSLIGI BO'YICHA
MUTAXASISLIK FANIDAN TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH
IMTIHONI UCHUN
DASTUR

DENOV-2025

Annotatsiya

Mazkur dastur 08.01.01 – Iqtisodiyot nazariyasi ixtisosligi bo'yicha qabul imtihoni o'tkazish uchun tavsiya etiladigan savollar, ularga javob tayyorlashda e'tiborga olish zarur bo'lgan masalalar yuzasidan umumiy yo'nalish bayonini o'z ichiga oladi.

Tuzuvchilar:

R.X.Ergashev

Qarshi Davlat Texniga universiteti DSc *professor*

F.T.Yo'ldoshev

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti PhD,
dotsent

Taqrizchilar:

K.U.To'raboyeva – DTPI "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini muditi, dotsent.

N.M.Eshqobilova – DTPI "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini o'qituvchisi.

Ushbu dastur va baholash mezonini Raqamli iqtisodiyot kafedrasining
2025 yil 27/08 sanasidagi 1-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ma'qullangan.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Ilmiy kengashining 2025 yil 28/08
1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

KIRISH

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev -Iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirganda, avvalo, keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida quyidagi maqsadlar mujassam ekanini qayd etish lozim: – ochiq iqtisodiyot, sog'lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish; – iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini ko'paytirish; – iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash; – "yashirin" iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish; – valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish; – iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro'yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash lozimligi to'g'risida ta'kidlab o'tdi¹. Ushbu muammolar va hayotning o'zi oldimizga qo'ygan murakkab vazifalarni tezroq hal qilish, ularning yechimini izlab topish, ko'p jihatdan kishilarning iqtisodiyot sirlarini, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining mazmunini, ularning talablari, ziddiyatli va chalkash xususiyatlarini, qonun- qoidalarini, mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish maqsadida qabul qilingan strategik dasturlar mazmunini, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, inson manfaatini birinchi o'ringa qo'yish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning maqsadi va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog'liqdir. -Iqtisodiyot nazariyasi fani iqtisodiyot tushunchalarini, uning qonun-qoidalarini, tejamli xo'jalik yuritish sirlarini, turli kishilar va xo'jaliklarning bir-birlari bilan manfaatli iqtisodiy aloqada bo'lib, unumli mehnat qilish yo'llarini va shakllarini o'rgatadi.

Jamiyatda ro'y beradigan iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlari mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlarni berishda «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining roli beqiyosdir. Bugungi kunda yosh avlodda xususan talabalarda bunyodkorlik g'oyalarini shakllantirish, ularning ilmiy dunyoqarashini chuqurlashtirish va kengaytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirish kabi muhim amaliy vazifalarni bajarish orqali mazkur fanning ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Shu bilan birga 2017 yil 20 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining -Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risidagi qarori qabul qilindi, bundan tashqari oliy ta'lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalardan biri sifatida "...xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnolo-giyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish..." vazifasi qo'yildi. Belgilangan vazifalar va qo'yilgan talablardan kelib chiqib, "Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo'yicha ushbu o'quv dasturi ishlab chiqildi.

I. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga jahon miqyosida to'plangan va bir tizimga keltirilgan iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy

tushunchalari, kategoriyalari, qonunlarini, tamoyillarini, ularning amal qilish xususiyatlari va mexanizmlarini hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni taraqqiyotning turli bosqichlarida va turli mamlakatlarda tarkib topib shakllangan nazariy bilimlar, iqtisodiy mushohada qilish usullari bilan qurollantirish; iqtisodiy hodisa va jarayonlar mazmunini mantiqiy mushohada qilish uchun zarur bo'lgan uslubiy yondashuvlarni egallashiga ko'maklashish; ular ongiga iqtisodiy taraqqiyotda erishilgan yutuqlar asosida milliy mafkuraning asosiy qoidalarini singdirish; iqtisodiyotni modernizatsiyalash, erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish asosida hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning dolzarb muammolarini ochib berish; iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlar to'g'risida milliy ko'nikmalarni hosil qilish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning umumiy asoslari, bosqichlari, o'zgarish sabablari va oqibatlari; hozirgi zamon bozor iqtisodiyotining xususiyatlari; iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi***;

- iqtisodiyot nazariyasi asoslarini; milliy iqtisodiyotning amal qilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini; makroiqtisodiy darajadagi vaziyatlarni; iqtisodiy jarayonlarning amal qilish xususiyatlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

- talaba iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini bilgan holda samarali qo'llash; iqtisodiy qonunlarni, ilmiy tushunchalarning (kategoriyalarning) amal qilish xususiyatlarini, mexanizmlarini bilgan holda iqtisodiy muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***.

II. Fanning mazmuni

1-MODUL. IQTISODIY TARAQQIYOTNING UMUMIY ASOSLARI

1-mavzu. "Iqtisodiyot nazariyasi" fanining predmeti va bilish uslublari

Iqtisodiyot tushunchasi va turlari. Iqtisodiy faoliyatning mazmuni. Takror ishlab chiqarishning mazmuni va fazalari: ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol. Ehtiyojlarning mazmuni va ularning turkumlanishi. Ehtiyojlarning o'sib borishi qonuni. Iqtisodiy resurslarning mazmuni va turkumlanishi. Iqtisodiy resurslar va ehtiyojlarning qondirilish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik. Iqtisodiyot oldidagi muammolar.

Iqtisodiyotga oid bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi. Qadimgi Sharq va G'arb xalqlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishidagi asosiy oqimlar: merkantilizm, fiziokratlar, ingliz klassik iqtisodiy maktabi, marksizm va marjinalizm. Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy oqimlar.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti to'g'risida turlicha yondashuvlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti. Iqtisodiy hodisa va jarayonlar. Moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari. Iqtisodiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Iqtisodiyot nazariyasi – barcha iqtisodiy fanlarning uslubiy poydevori va davlat iqtisodiy siyosatining ilmiy asosi ekanligi. Hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurining shakllanishida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini tahlil qilish va bilishda iqtisodiyot nazariyasi fanining roli. Iqtisodiyot nazariyasi fanining talaba-yoshlar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda va milliy istiqlol g'oyasini singdirishdagi ahamiyati.

Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. Iqtisodiy qonunlarning turkumlanishi.

Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni bilish usullari: iqtisodiy qonunlar, hodisalar va jarayonlarni ilmiy bilishning dialektik qoidalari, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, ikki tomonlama yondashuv, empirik usul va farazlardan foydalanish. Mikro va makroiqtisodiy tahlil. Iqtisodiy tahlilda matematik, statistik va grafik usullardan foydalanish. Pozitiv va normativ usullar. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev ma'ruzalarini va O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasini o'rganishning ilmiy uslubiy ahamiyati.

2-mavzu. Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari

Ishlab chiqarishning ahamiyati to'g'risidagi turli maktab vakillarining fikr va qarashlari. Ishlab chiqarish omillari va ularning turkumlanishiga turlicha yondashuvlar. Ishlab chiqarish omillarining o'zaro bog'liqligi va bir- birining o'rnini bosishi.

Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va uning iqtisodiy asoslari. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi. Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomoni. Qisqa va uzoq davrdagi ishlab chiqarish. Ishlab chiqarishning jamiyat hayotidagi ahamiyati. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning o'zaro bog'liqligi. Tovar va xizmatlar nafililigi va qiymatining yaratilishida ishlabchiqarish omillarining roli.

Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari. Yalpi ijtimoiy mahsulot. Takroriy hisob. Oraliq mahsulot, pirovard mahsulot, qo'shilgan mahsulot, sof mahsulot. Zaruriy va qo'shimcha mahsulot. Qo'shimcha mahsulot normasi va massasi. Qo'shimcha mahsulotning zarurligi va ahamiyati. Ishlab chiqarish funksiyasi. Umumiy, o'rtacha va so'nggi qo'shilgan mahsulot, ularni hisoblash tartibi. So'nggi qo'shilgan omil unumdorligi. Unumdorlikning pasayib borishi qonuni.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari tushunchasi. To'la bandlik. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i. Muqobil xarajatlar. FTT va ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasining kengayishi. O'zbekistonda 2017-2021 yillarda yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish.

Ishlab chiqarish samaradorligi. Iqtisodiy resurslarni tejash qonuni. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir qiluvchi omillar. Samaradorlikni belgilovchi ko'rsatkichlar tizimi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari: FTTning evolyusion va revolyusion shakllari, mamlakatimizda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish jarayonlarining davom ettirilishi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev ma'ruzalarida va O'zbekiston

Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi va uning sabablari. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosati.

3-mavzu. Iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari

Ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli xil yondashuvlar: tarixiy-formatsion, madaniylashish (sivilizatsiya) darajasi, texnika va texnologik darajasi, iqtisodiy tizimlar o'zgarishijihatidan yondashuv. Jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari. Ishlab chiqarish munosabatlari. Ishlab chiqarish usuli. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya. sivilizatsiyaning tarixiy rivojlanish tiplari. sivilizatsiyalarning almashuvi nazariyasi. Ishlab chiqarishning texnologik usuli. Oddiy kooperatsiya, manufaktura va yirik mashinalashgan ishlab chiqarish. Industrlashishgacha bo'lgan jamiyat, industrlashgan jamiyat, yuqori industrlashgan (axborotlashgan) jamiyat. Iqtisodiy tizim tushunchasi. Iqtisodiy tizim modellari: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyotining bosqichlari: erkin raqobatga asoslangan va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti. Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni. Mulk ob'ekti va sub'ekti. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy jihatlari. Mulk shakllarining tasniflanishi. Davlat mulki, jamoa mulki, shaxsiy mulk, xususiy mulk va aralash mulk.

Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilikning o'rni. Mulkchilik shakllarini o'zgartirish usullari: milliyashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari.

Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilikning o'rni. Mulkchilik shakllarini o'zgartirish usullari: milliyashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari. O'zbekiston Respublikasida mulkchilikni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

2017-2021 yillarda davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash.

4-mavzu. Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bozor iqtisodiyoti shakllanishi va amal qilishining asosidir

Ijtimoiy xo'jalik shakllari. Natural va tovar ishlab chiqarishning belgilari va farqlari. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi sabablari. Turli iqtisodiy maktab vakillarining natural va tovar ishlab chiqarish to'g'risidagi nazariyalari.

Tovar va uning xususiyatlari. Tovarining nafliligi va ayirboshlanish qobiliyati (qiymati). Tovar qiymatining miqdori. Individual va ijtimoiy zaruriy naflilik. Individual va ijtimoiy-zaruriy mehnat sarflari. Ijtimoiy-zaruriy ish vaqti. Mehnatning ikki yoqlama tavsifi: aniq mehnat va abstrakt mehnat. Mehnat unumdorligi va intensivligining tovar qiymati miqdoriga ta'siri.

Qiymatning mehnat nazariyasi. Qiymat qonuni. Tovar qiymati va narxining o'zaro farqlanish shart-sharoitlari. Keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyasi. Umumiy va aniq naflilik. Naflilikning pasayib borishi. Qiymatning mehnat

nazariyasi va keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyasining o'zaro aloqasi hamda bir-birini to'ldirishi. Qiymatparadoksi.

Pulning kelib chiqishi va mazmuni. Pulning ratsionalistik va evolyusion konsepsiyalari. Qiymat shakllari. Pul to'g'risidagi metallistik, nominalistik va miqdoriy nazariyalar. Pulning asosiy vazifalari: qiymat o'lchovi, muomala vositasi, jamg'arish vositasi, to'lov vositasi. Narxlar o'lchovi (masshtabi). Hozirgi zamon pulining tabiati va mazmuni. Oltin va qog'oz pullarning o'zaro bog'liqligi. Naqd va kredit pullarning xususiyatlari.

O'zbekistonda milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilishi bosqichlari va ularning ahamiyati. Milliy valyuta barqarorligini oshirish vazifalarini hal etish borasidagi dasturlar.

2-MODUL. BOZOR IQTISODIYOTI NAZARIYASI

5-mavzu. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning rivojlanishi. Bozor iqtisodiyotining sub'ektlari: uy xo'jaliklari, tadbirkorlik sektori, davlat sektori va bank. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor tizimining o'z-o'zini tartibga soluvchi mexanizmi. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, ularning umumiy tomonlari va farqlari. Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy muammolarni hal qilish va resurslardan samarali foydalanish yo'llari.

Bozor iqtisodiyotining afzalliklari. Resurslarni taqsimlashning samaradorligi. Iqtisodiy faoliyat va tanlov erkinligi. Iqtisodiy sub'ektlar harakatining ta'minlanishi. Bozor iqtisodiyotining boshqa ijobiy jihatlari. Bozor iqtisodiyotining asosiy ziddiyatlari va salbiy jihatlari.

“Bozor” va “bozor iqtisodiyoti” tushunchalarining o'zaro farqlanishi. Bozorning mazmuni va asosiy belgilari. Bozor mexanizmi. Bozorning ob'ektlari va sub'ektlari. Bozorning vazifalari. Bozorning turkumlanishi. Resurslar, mahsulotlar va daromadlarning doiraviy aylanishi.

Bozor infratuzilmasi. Bozor infratuzilmasi muassasalarini guruhlash yo'nalishlari. Bozor infratuzilmasi tarkibi.

6-mavzu. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri va uning O'zbekistondagi xususiyatlari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o'tish – barcha mamlakatlarga xos umumiy jarayon. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning revolyusion va evolyusion shakllari. Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning xususiyatlari. O'tish davrida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.

O'tish davri iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy modellari. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.Karimovning bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modeli, uning tamoyillari va xususiyatlari. O'zbek modelida hozirgi davrdagi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirlaridan himoya vositasining mujassamlashganligi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichlari.

Iqtisodiy islohotlarning mazmuni. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiyasi va strategiyasi hamda asosiy yo'nalishlari. Iqtisodiy

islohotlarning bosqichlari va ularning vazifalari. O'zbekistonda islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlari.

Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonining mazmuni va uning bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlashdagi roli. Modernizatsiyalash jarayonining tamoyillari, asosiy belgi va tarkibiy qismlari. Hozirgi davrda O'zbekistonda modernizatsiyalash jarayonlarining asosiy yo'nalishlari. 2017- 2021 yillarda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvoryo'nalishlari.

3-MODUL. MIKROIQTISODIYOTNING AMAL QILISH VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

7-mavzu. Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati

Talab tushunchasi. Individual talab va bozor talabi. Talab qonuni. Giffen samarasi. Talab egri chizig'i. Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: iste'molchi didi, bozordagi iste'molchilar soni, ularning pul daromadi, o'rni bosuvchi tovarlar narxi, kelajakda narx va daromadlarning o'zgarishi ehtimoli. Oliy va past toifali tovarlar. Engel qonuni. Engel egri chizig'i.

Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif egri chizig'i. Taklif miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar: resurslar narxi, ishlab chiqarish texnologiyasi, soliqlar va subsidiyalar, boshqa tovarlar narxi, narx o'zgarishining kutilishi, ishlab chiqaruvchilar soni. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning xususiyatlari.

Talab va taklif miqdorlarining mos kelishi. Qisqa va uzoq davrlarda talabning o'zgarishi. Bozor muvozanati. Xususiy va umumiy muvozanatlik. Talab va taklif egiluvchanligi va ularni belgilab beruvchi omillar.

Iste'molchi xatti-harakati nazariyasi. Iste'molchining afzal ko'rish. Naflilik funksiyasi. So'nggi qo'shilgan naflilik. Naflilikni maksimal-lashtirish qoidasi. Iste'molchining muvozanatli holati. Befarqlik egri chizig'i. Befarqlik kartasi. Iste'molchi budjetining cheklanganligi. Budjet chizig'i. Narx va daromadlar o'zgarishining iste'molchi tanloviga ta'siri.

8-mavzu. Raqobat va monopoliya

Raqobat vujudga kelishi to'g'risidagi turli nazariyalari. Raqobatning mohiyati va ob'ektiv asoslari. Raqobat mazmuniga turli tomondan yondashuv. Raqobatning vazifalari. Raqobatning turlari: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat. Raqobat shakllari: sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya va sof monopoliya. Raqobatlashish usullari: narx vositasidagi va narxsiz raqobat, g'irrom va halol raqobat. Demping narxlarni qo'llash. Raqobat kurashining zamonaviy shakllari: mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni yangilash, xizmat sifati, reklama, servis, marketing va h.k.

Monopoliyaning mohiyati va uning vujudga kelishi sabablari. Ishlab chiqarish va kapitalning to'planishi va markazlashuvi. Monopoliyalarning turlari: sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya. Tabiiy monopoliyalar. Legalva sun'iy monopoliyalar. Lerner koeffitsienti. Monopolistik birlashmalar shakllari. Monopoliyalarning afzalliklari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Shumpeter gipotezasi. Davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari. Rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi siyosat borasidagi tajribalar. Monopoliyaga qarshi qonunchilik.

O'zbekistonda raqobat muhitini shakllantirish borasidagi chora- tadbirlar. Mamlakatimizda raqobat muhitini kuchaytirishning zarurligi va yo'nalishlari.

Monopoliyaga qarshi qonunchilikning shakllanishi. Monopolistik korxonalarni tartibga solish usullari. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar. Mamlakatimizda 2017-2021 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish.

9-mavzu. Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari

Narxning mazmuni va uning ob'ektiv asoslari. Narx to'g'risidagi turli nazariyalar. Tovardagi ikki xil xususiyatlarning narxlardagi ifodasi. Narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning vazifalari.

Narxturlari: ulgurjivachakananarxlar. Nufuzli, demping va dotatsiyalangan narxlar. Shartnomaviy, erkinvatartibgasolinuvchinarxlar. Hududiy, milliy va jahon bozori narxlari. Narx diapazoni. Narx pariteti.

Narx tashkil topishining bozor mexanizmi. Mukammal raqobat sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari. Sotuvchi va xaridor narxlari. Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Ommaviy taklif bo'yicha narx o'zgarishi. Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi. Ommaviy talab bo'yicha narxning o'zgarishi. Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi. "Ergashish" va "inkor etish" holatlari. Narx bo'yicha yetakchilik.

Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari. Narxlarni erkinlashtirish yo'llari va bosqichlari.

10-mavzu. Tadbirkorlik faoliyati va uning shakllari.

Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi

Tadbirkorlik faoliyati nazariyasining rivojlanish bosqichlari. Tadbirkorlik faoliyatining mazmuni va rivojlanish shart-sharoitlari.

Tadbirkorlik faoliyatining shakllari: davlat, jamoa, xususiy, aralash va boshqa shakllari. Korxona – tadbirkorlik faoliyatining asosiy va boshlang'ich bo'g'ini. Korxonalar faoliyatining tashkil qilinishi. Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlik kapitali. Aksiya va uning turlari. Aksiya kursi. Dividend va ta'sischi foydasi. Nazorat paketi. Obligatsiyalar. Marketing, uning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Menejment - korxonalarni boshqarish tizimi sifatida. Menejmentning asosiy maqsadi va vazifalari.

O'zbekistonda kichik va oilaviy biznes hamda xususiy tadbirkorlikning yanada erkinlashtirilishi, rag'batlantirilishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Hozirgi davrda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratilishi.

Tadbirkorlik kapitalining mohiyati. Tadbirkorlik kapitali va uning harakatidagi ikki tomonlama xususiyatning namoyon bo'lishi. Tadbirkorlik kapitalining funksional shakllari: pul, unumli kapital va tovar. Kapitalning harakat bosqichlari. Tadbirkorlik kapitali turli shakllarining doiraviy aylanishi.

Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital, ularning farqli belgilari. Kapitalning aylanish vaqti va tezligi. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish: jismoniy, ma'naviy va iqtisodiy eskirishi va qayta tiklanishi. Amortizatsiya va uning normasi. Jadallashgan amortizatsiya. Asosiy va aylanma

kapitaldan foydalanish samaradorligi va uning ko'rsatkichlari. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari. Tadbirkorlik kapitalini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qonunlar, farmonlar, qarorlar va davlat dasturlarining amalga oshirilishi.

11- mavzu. Korxona (firma) xarajatlari va foydasi

Ishlab chiqarish xarajatlarini tadqiq etishdagi yondashuvlar. Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari. Korxona ishlab chiqarish xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlarining mazmuni, tarkibi va turlari. Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari. Ichki va tashqi xarajatlar. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar. O'rtacha va umumiy xarajatlar. So'nggi qo'shilgan xarajatlar tushunchasi. Xarajatlarni minimallashtirish qoidasi.

Qisqa va uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish xarajatlari. Natijalar o'zgarishiga unumdorlik pasayib borishi qonunining ta'siri. Ishlab chiqarish miqyosining ijobiy samarasi. Tannarx.

Korxona (firma) ning pul tushumlari va foydasi. Xarajatlar va daromadlar egri chizig'i. Zarar ko'rmaslik nuqtasi. Umumiy foyda. Foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Mahsulot qiymati tarkibi. Yalpi foydaning taqsimlanishi. Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasining farqlanishi. Me'yordagi foyda. Sof foyda. Foyda normasi va massasi hamda ularni hisoblash. Foyda normasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Korxonalarining bankrot bo'lishi (sinishi) va sanatsiya qilinishi. Korxonalar foydasini maksimallashtirish sharti va uni ko'paytirish yo'llari. Foyda miqdorini ko'paytirishda moddiy resurslarni tejashning ahamiyati. Iqtisodiyotni rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasi va uning ustuvor yo'nalishlarida belgilangan mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda mahsulotlari samaradorligini oshirish bo'yicha belgilangan asosiy vazifalar.

12- mavzu. Ish haqi va mehnat munosabatlari

Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari. -Ishlab chiqarishning uch omilil, qo'shilgan omil unumdorligi va boshqa nazariyalar. Mazkur nazariyalarning kamchiliklari. Yaratilgan mahsulotni taqsimlashning asosiy yo'nalishlari.

Ish haqi to'g'risida turlicha nazariyalar. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Nominal va real ish haqi. Real ish haqining darajasi va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Ish haqining tabaqalanishi. Ish haqini tashkil qilish shakllari va tizimlari. Tarif tizimi. Minimal ish haqi.

Mehnat munosabatlari. Mehnat shartnomalari. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o'zaro munosabatlari. Kasaba uyushmalarining ish haqi darajasini oshirish yo'llari. Ishchi kuchi talabi va taklifini o'zgartirish. Jamoa shartnomalari va ijtimoiy sug'urta tizimi. Ochiq va yopiq turdagi kasaba uyushmalarining ish haqi darajasiga ta'siri. Mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlatning roli.

Davlatning ish haqi siyosati. Respublikada mehnatni rag'batlantirish, ish haqini ko'paytirish va aholi daromadlari o'sishini ta'minlashga qaratilgan siyosatni amalga oshirilishi. -Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilil davlat dasturidan kelib chiqadigan asosiy vazifalar. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada

rivojlantirishda belgilangan ishhaqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini izchil oshirish.

13-mavzu. Agrar munosabatlar va agrobiznes

Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi xususiyatlari. Yerning resurs sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari. Yerning tabiiy va iqtisodiy unumdorligi. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari. Yer – mulkchilik va xo'jalik yuritish ob'ekti. Yerga egalik vayerdan foydalanish huquqi.

Yer rentasi mazmuniga bo'lgan turli xil yondashuvlar va yer rentasining tarixiy shakllari. Yer rentasining mazmuni va turlari: differensial renta, absolyut renta, monopol renta, undirma sanoat va qurilish uchastkalaridan olinadigan renta. Ijara haqi. Yerning narxi va uni belgilovchi omillar.

Agrosanoat integratsiyasi. Agrobiznes va uning turlari. Dehqon va fermer xo'jaliklari. Agrofirma, agrosanoat kombinati.

O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari. O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlari. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash choralari. Tomorqa xo'jaliklarining kengaytirilishi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi tarkibiy tuzilishini takomillashtirish. 2017-2021 yillarda qishloq joylarda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

4-MODUL. MILLIY IQTISODIYOT (MAKROIQTISODIYOT)NING AMAL QILISH VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

14-mavzu. Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari.

Yalpi ichki mahsulot va uning harakat shakllari

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va milliy iqtisodiyotning shakllanishi. Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi. Makroiqtisodiyot. Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va uning harakat shakllari. Yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot. Nominal va real yalpi ichki mahsulot. Narx indeksi. Yalpi ichki mahsulotning tarkibiy tuzilishi. Sof milliy mahsulot, milliy daromad va shaxsiy daromad. Xufyona iqtisodiyot, uning o'lchamlari va namoyon bo'lish shakllari. Milliy mahsulot (YaIM) ni ko'paytirish omillari va yo'llari.

Milliy hisoblar tizimi. YaIMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. YaIMni hisoblashga sarf-xarajatlar bo'yicha yondashuv. Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari. Investitsion sarflar. Davlat sarflari. Chet elliklarning sarflari. YaIMni hisoblashga daromadlar bo'yicha yondashuv.

O'zbekiston iqtisodiyoti yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni jadallashtirish va uning ko'lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash milliy mahsulotni ko'paytirishning ustivor yo'nalishi sifatida.

